

OYBEK VA ABDULLA QAHHORNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI

Fargʻona davlat universiteti
Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi
Sulaymonova Saodatxon

Annotatsiya: *mazkur maqolada Oybek hamda Abdulla Qahhorning adabiy-tanqidiy hamda estetik qarashlari ilmiy-tahliliy asosda yoritilgan. Unda har ikki ijodkorning adabiyot, realizm, xalqchilik, badiiy mahorat, ijodkor masʼuliyati va hayot haqiqatini aks ettirish haqidagi fikrlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Oybekning falsafiy-estetik mushohadalari, adabiyotni maʼnaviy-maʼrifiy kuch sifatida talqin etishi hamda Abdulla Qahhorning hayotiylik, ixchamlik, samimiyat va satirik tasvirga asoslangan qarashlari ochib beriladi. Shuningdek, maqolada mustaqillik davri oʻzbek adabiyotshunosligida Abdulla Qahhor ijodiga yangicha yondashuvlar, xususan, Rahimjon Qoʻchqorovning “Sarob” va “Qoʻshchinor” romanlari haqidagi ilmiy izlanishlari tahlil etilgan. Adabiy jarayonni “tushunish” konsepsiyasi asosida baholash tamoyillari yoritilib, Qahhor ijodining tarixiy va estetik mohiyati ochib berilgan. Maqola oʻzbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyoti, realizm anʼanalari va ijodkor masʼuliyati masalalarini oʻrganishda muhim ilmiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.*

Kalit soʻzlar: *Oybek, Abdulla Qahhor, adabiy tanqid, realizm, xalqchilik, badiiy mahorat, estetik tafakkur, hayot haqiqati, satira, ijodkor masʼuliyati, adabiy-estetik qarashlar, istiqloq davri tanqidchiligi, “Sarob” romani, Rahimjon Qoʻchqorov, badiiy tafakkur, oʻzbek adabiyotshunosligi.*

Abstract: *in this article, the literary-critical and aesthetic views of Aibek and Abdulla Qahhor are covered on a scientific-analytical basis. In it, the opinions of both creators about literature, realism, nationalism, artistic skills, the responsibility of the creator and reflecting the reality of life are analyzed in a comparative way. Aybek's philosophical and aesthetic observations, his interpretation of literature as a spiritual and educational force, and Abdulla Qahhor's views based on vitality, brevity, sincerity and satirical imagery are revealed. Also, the article analyzes new approaches to Abdulla Qahhor's work in Uzbek literary studies of the period of independence, in particular, Rahimjon Kochkarov's scientific research on the novels "Sarob" and "Koshchinor". The principles of evaluating the literary process based on the concept of "understanding" are highlighted, and the historical and aesthetic essence of Kahhor's work is revealed. The article is important as an important scientific source in the study of the development of Uzbek literary criticism, the traditions of realism and the responsibility of the creator.*

Key words: *Oybek, Abdulla Qahhor, literary criticism, realism, nationalism, artistic skill, aesthetic thinking, reality of life, satire, responsibility of the creator, literary-aesthetic views, criticism of the independence period, "Sarob" novel, Rahimjon Kochkarov, artistic thinking, Uzbek literary studies.*

KIRISH

XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida nafaqat yirik badiiy asarlar yaratgan, balki adabiy-estetik tafakkur rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan ijodkorlar orasida Oybek hamda Abdulla Qahhor alohida o'rin tutadi. Ularning ijodi faqat roman, qissa, hikoya yoki she'rlar bilangina emas, balki adabiyot, san'at, ijodkor mas'uliyati, badiiy mahorat va xalqchillik haqidagi adabiy-tanqidiy qarashlari bilan ham qimmatlidir. Har ikki ijodkor o'z davri adabiy jarayoniga faol munosabat bildirgan, adabiyotning jamiyatdagi o'rni va vazifasi haqida teran fikrlar ilgari surgan.

Oybek adabiyotni xalq ruhiyatining ifodasi deb bilgan bo'lsa, Abdulla Qahhor badiiy asarning haqqoniyligi va hayotiyligini eng muhim mezon sifatida ko'rdi. Ularning tanqidiy qarashlarida ijodkorning ma'naviy mas'uliyati, so'z san'atining qudrati va realizm tamoyillari markaziy o'rin egallaydi.

Oybekning adabiy-tanqidiy qarashlari. Oybek o'zbek adabiyotida yirik romannavis, shoir va olim sifatida tanilgan bo'lsa-da, uning adabiy-tanqidiy maqolalari ham katta ilmiy-estetik ahamiyatga ega. U adabiyotni xalq hayoti bilan uzviy bog'liq hodisa deb talqin qiladi. Adibning fikricha, haqiqiy san'at inson qalbiga ta'sir qilishi, uni ruhiy va ma'naviy jihatdan boyitishi kerak.

Oybek adabiyotning asosiy vazifasi insonni komillikka yetaklashdan iborat deb hisoblaydi. Uning ko'plab maqolalarida adibning jamiyat oldidagi mas'uliyati masalasi yetakchi o'rin tutadi. U yozuvchini xalq qalbining tarjimoni sifatida ko'radi. Shu sababli ham Oybek ijodkorni hayot haqiqatidan uzoqlashmaslikka, xalq ruhiyatini chuqur o'rganishga chaqiradi.

Adibning tanqidiy qarashlarida realizm masalasi muhim o'rin egallaydi. Oybek nazarida realizm — hayotni quruq tasvirlash emas, balki inson ruhiyatini, zamon murakkabliklarini badiiy umumlashtirishdir. U badiiy asarda tabiiylik va samimiyat bo'lishini talab qiladi. Ayniqsa, tarixiy mavzudagi asarlar haqida fikr yuritir ekan, tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ta'kidlaydi.

Oybekning adabiy-estetik qarashlari uning "Navoiy", "Qutlug' qon", "Bolalik" kabi asarlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, "Navoiy" romanida adib buyuk mutafakkir timsoli orqali ilm-fan, adolat, ma'rifat va insonparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. Bu esa Oybekning adabiyotga faqat estetik hodisa emas, balki ma'naviy-ma'rifiy kuch sifatida qaraganini ko'rsatadi.

Oybek tanqidchilikda mulohazali, vazmin va ilmiy yondashuv tarafdori edi. U keskin hukm chiqarishdan ko'ra, asarning ichki mohiyatini ochishga intilgan. Shu jihatdan uning tanqidiy maqolalari o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida muhim o'rin tutadi.

Abdulla Qahhorning adabiy-tanqidiy qarashlari. Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida mohir hikoyanavis, dramaturg va o'tkir munaqqid sifatida mashhurdir. Uning adabiy-tanqidiy qarashlari sodda, lo'nda va nihoyatda hayotiyligi bilan ajralib turadi. Qahhor adabiyotning bosh mezonini sifatida hayot haqiqatini ko'rsatadi. Uning fikricha, asar sun'iylikdan xoli bo'lishi, inson qalbiga yaqin kelishi kerak.

Qahhor badiiy mahorat masalasiga alohida e'tibor bergan. U "adabiyot — so'z san'ati" ekanini ta'kidlab, har bir jumla ustida jiddiy ishlash zarurligini qayd etadi. Adibning nazarida, ortiqcha so'z asarning ta'sir kuchini kamaytiradi. Shu sababli uning o'zi yaratgan hikoyalar ham ixchamligi va chuqur ma'nosi bilan ajralib turadi.

Abdulla Qahhor tanqidchilikda rostgo'ylik tarafdori bo'lgan. U adabiy jarayondagi kamchiliklarni ochiq aytgan, yuzaki va sun'iy asarlarni keskin tanqid qilgan. Adibning fikricha, yozuvchi avvalo hayotni chuqur bilishi kerak. Hayotni bilmagan ijodkor chinakam badiiy asar yarata olmaydi.

Qahhorning tanqidiy qarashlarida kulgi va satira masalasi ham muhim o'rin tutadi. U hajvni jamiyatdagi illatlarni fosh etuvchi qudratli vosita deb bilgan. Adib satirani insonni kamsitish emas, balki uni o'ylashga majbur qiluvchi ma'naviy qurol sifatida tushungan. Bu qarashlar uning "Mayiz yemagan xotin", "Sinchalak", "Og'riq tishlar" kabi asarlarida yorqin ifodasini topgan.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qahhor ijodini yangicha metodologik asosda talqin qilish jarayoni boshlandi. Sho'ro davrida yozuvchi asarlariga ko'proq mafkuraviy mezonlar asosida yondashilgan bo'lsa, istiqlol yillarida uning ijodiy laboratoriyasi, badiiy tafakkuri va asarlarining yaratilish tarixini xolis o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada Rahimjon Qo'chqorovning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotshunosning "Qo'sh roman va ayricha qarashlar", "Sarobning paydo bo'lishi" kabi maqolalari hamda "Men bilan munozara qilsangiz..." nomli risolasi Qahhor romanlarini qayta baholashga qaratilgan muhim tadqiqotlardan hisoblanadi. Ayniqsa, munaqqidning "Sarob" romani ustidagi kuzatishlari o'zbek tanqidchiligi tarixida yangicha qarash sifatida e'tiborni tortadi. Dastlab u roman qayta ishlanishining asosiy sababi adabiy tanqidning noto'g'ri baholari bo'lgan, degan xulosaga keladi. Biroq keyingi izlanishlari davomida olim o'z qarashlarini yanada chuqurlashtirib, masalaga biryoqlama emas, balki murakkab tarixiy-adabiy hodisa sifatida yondashadi.

R.Qo'chqorov "Sarob" va "Qo'shchinor" romanlarining qayta ishlangan variantlarini tahlil qilar ekan, avvalgi fikrlaridan voz kechish sabablarini ham ochiq bayon qiladi. Olimning ta'kidlashicha, u dastlab romanlardagi barcha o'zgarishlarni faqat qatag'on davri tanqidi bilan izohlashga moyil bo'lgan. Holbuki, masala bundan ancha murakkab edi. Munaqqid o'zi ilgari surgan qarashlarni qayta ko'rib chiqib, quyidagi savollarni o'rtaga tashlaydi: agar o'zgarishlarning asosiy sababi faqat siyosiy bosim bo'lsa, nega Abdulla Qahhor "Sarob" romanini aynan qatag'on yillarida qayta ishlamadi? Nima uchun yozuvchi asosiy tahrirlarni keyinroq — 1957-yildagi ikkinchi nashrda amalga oshirdi?

Ana shu savollar orqali olim adabiy jarayonni faqat siyosiy tazyiq natijasi sifatida emas, balki yozuvchining ichki ijodiy evolyutsiyasi, estetik qarashlari va davr ruhiyati bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida talqin qiladi. Bu esa istiqlol davri tanqidchiligining eng muhim tamoyillaridan biri — "tushunish" konsepsiyasini yuzaga chiqaradi. Darhaqiqat,

R.Qo'chqorov uchun asosiy maqsad yozuvchini ayblash yoki oqlash emas, balki uni anglash va tushunishdir.

Munaqqidning "chala haqiqatlar zanjiri bizni kelajakdan benasib qiladi" degan fikri ham katta ilmiy-metodologik ahamiyatga ega. Chunki adabiy haqiqatni to'liq ochib bermaslik yoki uni biryozlama talqin qilish nafaqat ijodkor shaxsiyatiga, balki milliy adabiy tafakkur taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, R.Qo'chqorovning izlanishlari istiqloq davri o'zbek tanqidchiligining yangicha tafakkurini namoyon etadi.

A.Qahhor butun ijodi davomida turli va ziddiyatli munosabatlarga duch kelgan ijodkorlardan biridir. Uning asarlari bir davrda yuksak baholangan bo'lsa, boshqa bir davrda keskin tanqid ostiga olingan. Yozuvchi ana shu qarama-qarshi munosabatlarni chuqur his qilgan va ularga nisbatan o'z munosabatini bildirgan. Shu bois R.Qo'chqorovning Qahhor haqidagi tadqiqotlari nafaqat bir yozuvchi ijodini o'rganish, balki o'zbek adabiy tanqidchiligining taraqqiyot bosqichlarini anglashda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Abdulla Qahhor ijodkorning mustaqil fikriga katta ahamiyat bergan. U adabiyotning vazifasi faqat voqeani tasvirlash emas, balki inson qalbini uyg'otish, uni tafakkur qilishga undashdan iborat deb hisoblagan.

Oybek va Abdulla Qahhor qarashlarining mushtarak va farqli jihatlari. Oybek va Abdulla Qahhorning adabiy-tanqidiy qarashlari o'rtasida mushtarak jihatlar ko'p. Avvalo, har ikki adib adabiyotning xalqchil bo'lishini talab qilgan. Ular badiiy asarda hayot haqiqatini aks ettirishni asosiy mezon deb bilganlar. Shuningdek, ikkala ijodkor ham yozuvchining ma'naviy mas'uliyatiga katta e'tibor qaratgan.

Biroq ularning uslubiy qarashlarida ayrim farqlar ham mavjud. Oybek tanqidchilikda ko'proq falsafiy va ilmiy-estetik mushohada yuritgan bo'lsa, Abdulla Qahhor hayotiylik, aniqlik va badiiy ixchamlikka urg'u beradi. Oybekning fikrlari mulohazali va lirizmga moyil bo'lsa, Qahhorning qarashlari keskin, lo'nda hamda satirik ruh bilan sug'orilgan.

Oybek adabiyotni inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi kuch sifatida talqin etsa, Qahhor uning hayotiy haqiqatni ochib beruvchi va jamiyatdagi illatlarni fosh qiluvchi jihatlariga ko'proq e'tibor qaratadi. Shunday bo'lsa-da, har ikki adibning qarashlari o'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida muhim maktab vazifasini bajargan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Oybek va Abdulla Qahhor o'zbek adabiyoti tarixida nafaqat iste'dodli ijodkor, balki teran tafakkur egasi bo'lgan munaqqidlar sifatida ham muhim o'rin egallaydi. Ularning adabiy-tanqidiy qarashlari realizm, xalqchilik, badiiy mahorat, samimiyat va ijodkor mas'uliyati kabi tamoyillarga asoslanadi.

Oybekning ilmiy-estetik mushohadalari va Qahhorning o'tkir hayotiy tanqidi bugungi adabiy jarayon uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Ularning qarashlari yosh ijodkorlarni haqiqatgo'ylik, badiiy mukammallik va xalq dardi bilan yashash ruhida tarbiyalaydi. Shu bois Oybek va Abdulla Qahhorning adabiy-estetik merosi o'zbek adabiy tafakkurining bebaho boyligi sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Otaxonov O. Mutoalaa / / Yosh kuch. - T.: 1989. - № 9. 14-bet.
2. Jabbor A. O'z davrining mashhur asari / / Yoshlik. — T.: 1990. - № 11
3. Umurov H. Ehtiyoj tafti / / Saylanma. Beshinchi jild. - Samarqand. 2011. 27-bet.
4. Qo 'chqor R. Men bilan munozara qilsangiz. - T.: Ma'naviyat, 1998. 68-bet.
5. <https://www.ziyouz.com/>
6. 1920-yillar. Fitrat, Cho'lpon, A.Sa'diy "Adabiyot qoidolari", "O'tkan kunlar" tahlili |
7. 1930-yillar. Oybek, O.Sharafiddinov, Uyg'un "Abdulla Qodiriy ijodi", "O'z xatolarimiz ustida..."
8. Poeziya H. Yoqubov, Mirtemir "O'zbek sovet poeziyasi 15 yil ichida" |
9. Drama. K. Yashin, Ziyo Said. Teatr va dramaturgiya taqrizlari